

UDC: 378.4:005.6

OLIY TA'LIM MUASSASALARI MENEJERLARINING KASBIY- BOSHQARUV MUHITINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-ME'YORIY ASOSLARI

Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich

*Jizzax politexnika instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
va Transport logistikasi kafedrası dotsenti, Phd.
+998 93 302 36 22*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv muhitini rivojlantirishda tashkiliy-me'yoriy asoslarning tutgan o'рни yoritilgan. Kasbiy-boshqaruv muhitining tarkibiy qismlari, mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ularning ta'siri, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, menejerlar faoliyatini raqamlashtirish, kompetensiya modeli va baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, menejer, boshqaruv muhiti, me'yoriy asoslar, raqamlashtirish, kompetensiya.

ОРГАНИЗАЦИОННО-НОРМАТИВНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ СРЕДЫ МЕНЕДЖЕРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация: В статье рассмотрены организационно-нормативные основы развития профессионально-управленческой среды менеджеров высших образовательных учреждений. Проанализированы компоненты управленческой среды, действующие нормативные документы, их влияние, актуальные проблемы и пути их решения. Представлены практические предложения по цифровизации деятельности менеджеров, формированию модели компетенций и совершенствованию системы оценки.

Ключевые слова: высшее образование, менеджер, управленческая среда, нормативная база, цифровизация, компетенции.

ORGANIZATIONAL AND REGULATORY BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL AND MANAGEMENT ENVIRONMENT FOR MANAGERS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: This article explores the organizational and regulatory foundations for developing the professional-management environment of higher education institution managers. It analyzes the key components of the management environment, the existing legal framework, their impacts, current challenges, and potential solutions. The paper also provides

practical recommendations on digitalizing managerial activities, establishing a competency model, and improving evaluation systems.

Keywords: *higher education, manager, management environment, regulatory framework, digitalization, competency.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi, inson kapitalini rivojlantirish va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim menejmenti tizimini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bu holat, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari (OTM) menejerlarining kasbiy va boshqaruv salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishni, ularning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkiliy-me'yoriy asoslarni takomillashtirishni talab qilmoqda [1].

Bugungi kunda OTM menejerlarining kasbiy-boshqaruv muhiti turli omillar – me'yoriy hujjatlar, institutsional mexanizmlar, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va xalqaro tendensiyalar bilan bevosita bog'liq.

Kasbiy-boshqaruv muhitning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun esa, eng avvalo, bu faoliyatni tartibga soluvchi tashkiliy-me'yoriy asoslar mukammal bo'lishi lozim.

Tadqiqotimizda oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv muhitini shakllantirish va rivojlantirishda mavjud tashkiliy-me'yoriy asoslar, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, bu asoslarni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot doirasida o'zbek olimlaridan N.Xodjaev, B.Turaevlar quyidagicha izlanishlar olib borgan. Jumladan, menejment va boshqaruv nazariyasi hamda amaliyotini keng qamrab oladi. Mualliflar menejerlarning kasbiy faoliyatini tashkil etuvchi boshqaruv jarayonlari va tizimlarini batafsil tahlil qilib, ta'lim muassasalari boshqaruv muhitining me'yoriy asoslarini ham ko'rib chiqishadi. Kitobda tashkiliy strukturalar va boshqaruv me'yorlari muhim o'rin tutishi va Oliy ta'lim menejerlarining boshqaruv muhitini rivojlantirishda strategik yondashuvlar muhim ekanligi ta'kidlangan [3,4].

M.Karimovning raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruv jarayonlarini modernizatsiya qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, R.I Dolzhenko, Oliy ta'lim muassasalaridagi menejerlarning kasbiy faoliyati va boshqaruv muhitini rivojlantirishning tashkiliy-me'yoriy jihatlari haqida chuqur ma'lumot beradi. Shuningdek, boshqaruv jarayonlarining me'yoriy-huquqiy asoslari batafsil yoritgan [5,6].

Izlanishlar davomida oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv muhitini rivojlantirishning tashkiliy-me'yoriy asoslarini aniqlash va tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy metodlar va usullar yordamida olib borildi.

Oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv muhitini shakllantiruvchi tashkiliy va me'yoriy hujjatlar, normativ hujjatlar, qonunlar va boshqa rasmiy hujjatlar o'rganildi. Bu bosqichda milliy va xalqaro standartlar, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi uchun me'yoriy bazalar tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1. Kasbiy-boshqaruv muhit tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Kasbiy-boshqaruv muhit — bu oliy ta'lim muassasasida menejerlar faoliyat yuritadigan tashkiliy, huquqiy, axborot, psixologik va institutsional shart-sharoitlar majmuasidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat [7-9]:

- Me'yoriy-huquqiy baza
- Tashkiliy strukturaviy mexanizm
- Raqamli boshqaruv infratuzilmasi
- Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi
- Monitoring va baholash mexanizmlari

1-jadval.

Kasbiy-boshqaruv muhit komponentlari va ularning vazifalari

Komponent	Vazifasi
Me'yoriy-huquqiy baza	Menejer faoliyatini tartibga solish
Tashkiliy tuzilma	Vazifalar va vakolatlarni belgilash

Raqamli infratuzilma	Samarali boshqaruv uchun texnik asos yaratish
Kadrlar salohiyati	Menejrlarning malakasini oshirish
Baholash tizimi	Faoliyat samaradorligini monitoring qilish

2. Tashkiliy-me'yoriy asoslarning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sohasida qabul qilingan quyidagi me'yoriy hujjatlar OTM menejrlari kasbiy-boshqaruv muhitini belgilovchi asosiy manbalar hisoblanadi:

Prezident qarori PQ–2909-son (2022-yil): “Raqamli ta'lim muhitini joriy etish”
Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 190-son qarori: OTMlar faoliyatini baholash mezonlari [10]

“Ilmiy-pedagogik kadrlarni uzluksiz rivojlantirish dasturi” (2024–2026)

Grafik 1. Oliy ta'lim menejrlari faoliyatiga ta'sir qiluvchi me'yoriy hujjatlar ulushi (%)



1-rasm. Har bir me'yoriy hujjatning boshqaruv faoliyatiga nisbatan ahamiyat darajasi.

3. Kasbiy-boshqaruv muhitni shakllantirishdagi muammolar

Asosiy muammolar:

Me'yoriy hujjatlar o'rtasida uzviylikning yo'qligi

Amaliyotga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash tizimining zaifligi

Raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarining pastligi
Menejerlarning faoliyatini baholash tizimining eskirganligi

2-jadval.

Amaldagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Muammo	Yechim
Me'yoriy-huquqiy bo'shliqlar	Muvofiqlashtirilgan yagona reglament ishlab chiqish
Kadrlar tayyorlashda zamonaviy yondashuv yetishmasligi	Kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlarini joriy etish
Raqamlashtirishda infratuzilma muammolari	Texnik baza va AKT bo'yicha qo'shimcha moliyalashtirish
Faoliyat baholash mezonlarining eskirganligi	KPI asosida natijadorlikni baholash tizimini yaratish

4. Takomillashtirish istiqbollari

OTM menejerlari uchun "Kasbiy-boshqaruv kompetensiyalar modeli"ni ishlab chiqish


Tashkiliy strukturalarni moslashuvchan qilish (matritsali yondashuv asosida)

Raqamli boshqaruv tizimlari — masalan, ERP, CRM, LMS platformalarini joriy etish

Har yili malaka oshirish kurslarini majburiy qilish

Chizma 1. Kasbiy-boshqaruv muhitni rivojlantirish modeli

Kasbiy-boshqaruv muhitni rivojlantirish modeli



2-rasm. Kasbiy noshqaruv muhitni rivojlantirish modeli.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida menejerlar uchun samarali kasbiy-boshqaruv muhitini yaratish, avvalo, mustahkam tashkiliy-me'yoriy asoslar bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida bu asoslar nafaqat hujjatlar to'plami, balki amaliyotda qo'llaniladigan, o'zaro bog'langan tizimga aylanishi zarur.

Menejerlarning kasbiy salohiyati, ularni tayyorlash va baholash mexanizmlari, boshqaruv strukturalarining moslashuvchanligi, raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari – bularning barchasi kuchli me'yoriy asoslar bilan mustahkamlangan taqdirdagina, OTMLar raqobatbardosh va samarali faoliyat yurita oladi.

Tavsiyalar

1. OTMLar uchun menejerlar kompetensiya modeli ishlab chiqilsin.
2. Me'yoriy hujjatlar o'rtasida uzviylikni ta'minlovchi yagona reglament yaratilishi lozim.
3. Kadrlar malakasini oshirish kurslari tizimlashtirilsin.
4. KPI tizimi asosida menejerlar faoliyati baholansin.
5. Boshqaruv texnologiyalariga zamonaviy raqamli yechimlar integratsiya qilinsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri, 2020-yil, 23-sentabr)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-son qarori. "Raqamli ta'lim muhitini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-martdagi 190-sonli qarori. "Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari to'g'risida".
4. "Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni uzluksiz rivojlantirish konsepsiyasi (2024–2026 yillar)". O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023.
5. Xodjaev, N. va boshqalar. Oliy ta'limda menejment va boshqaruv. – Toshkent: "Fan", 2021.
6. Turaev, B. Ta'lim tizimida strategik boshqaruv asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
7. Karimov, M. Raqamli boshqaruv asoslari. – Toshkent: Innovatsion texnologiyalar nashriyoti, 2022.

8. UNESCO (2021). Digital Transformation of Higher Education: Policy Recommendations. Paris: UNESCO Publishing.
9. OECD (2020). The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. OECD Publishing.
10. Dolzhenko, R.I. Upravleniye v sfere obrazovaniya: Teoriya i praktika. – Moskva: Akademicheskij Proyekt, 2020.
11. Кузнецова, Е.И. Организационно-управленческая деятельность в образовательной среде. – Москва: Юрайт, 2019.
12. Ismoilova, G. (2022). "Oliy ta'lim muassasalarida menejerlar kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari". // Ta'lim va Innovatsiya, №4, 56–63-betlar.
13. Ahmedov, R. (2023). "Ta'lim boshqaruvida raqamli transformatsiya: muammo va yechimlar". // Ilmiy Amaliy Jurnal, №6, 44–50-betlar.
14. World Bank (2022). Higher Education Institutions and Digital Governance. Washington, DC.